

HINDIY TILIDA “O’ZLASHMA” DEFINITSIYASI

*Rashidova T.A.
ToshDSHI, 2- kurs magistranti*

Soʻz oʻzlashtirish – tillarning aloqalari natijasida boshqa til elementlarining (soʻz, morfema, sintaktik qurilma va boshq.) bir tildan boshqa bir tilga olinishidir. Odatda soʻzlar koʻp oʻzlashtiriladi, kamdan-kam hollarda esa, sintaktik va frazeologik birliklar oʻzlashtirilishi mumkin. Tovushlar va soʻz yasovchi morfemalarni boshqa tildan oʻzlashtirish ularni koʻpchilik sonli oʻzlashmalardan farqlash uchun xizmat qiladi. Oʻzlashmalar oʻsha til tizimiga moslashtiriladi va koʻp hollarda shu darajada oʻzlashiladiki, oʻsha tilda gapiruvchilar tomonidan bu soʻzning kelib chiqishi anglab yetilmaydi, buni faqatgina etimologik tahlil orqali aniqlash mumkin boʻladi. Toʻliq oʻzlashtirilgan soʻzlardan farqli oʻlaroq, chet el soʻzlari oʻzining boshqa tilga oid ekanligini tovushlar, orfografik, grammatik va semantik xususiyatlarini saqlab qolgan holda, tub soʻzlardan farqli ekanligini koʻrsatadi.

Tarixan uzoq davom etgan tillarning oʻzaro munosabatlari va aralashishi natijasi tufayli koʻpchilik tillarda oʻzlashma soʻzlarning boʻlishi tabiiy holdir. Xalqlararo madaniy va iqtisodiy munosabatlarda tillarning oʻzaro taʼsiri kuchayib asosiy rol oʻynay boshlashi bilan qardosh va qardosh boʻlmagan tillar orasida internatsional (xalqaro) soʻzlarning asosiy fondini tashkil qilish zarurati tugʻildi. Yevropa tillarida xalqaro soʻzlarning asosiy fondini yunon va lotin tillari tashkil etadi. Yaqin va Oʻrta Sharqda arab va fors tillari, Uzoq Sharqda xalqaro til bazasini xitoy tili tashkil etishi fan va texnika doirasida maxsus atamalarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Soʻz oʻzlashtirish yoʻllari ogʻzaki (nutqda) hamda kitobiy, yozma (harflarda) boʻlishi mumkin. Yozma shakldan koʻra, ogʻzaki oʻzlashtirishda soʻz koʻproq oʻzgarishlarga uchraydi. Agar oʻzlashtirilayotgan soʻz bilan bir qatorda, oʻsha soʻz anglatgan yangi predmet yoki tushuncha ham oʻzlashsa, unda bu soʻz anglatgan tushuncha oʻzgarishga uchramaydi, biroq yangi soʻz mavjud soʻzga sinonim sifatida kirgan hollarda, ushbu sinonimlar oʻrtasida anglatgan tushuncha yuzasidan chegara yuzaga keladi, semantika doirasida maʼno siljishi kuzatiladi.

Boshqa tildan bir tilga soʻz oʻzlashtirish bevosita va bilvosita amalga oshishi mumkin. Morfologik murakkab tuzilishdagi oʻzlashgan soʻzlar tilda odatda sodda va tub holda qabul qilinadi. Boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlarning bitta asos va turli suffikslardan yoki turli xil asos va umumiy suffiksdan yasalgan soʻzlar tilda sermahsul foydalanilishi mumkin. Oʻzlashma soʻzlar (tuzulishi bilan) kalkalash yoʻli bilan bitishadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida o'zlashma so'ziga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "O'zlashma – o'zlashish, o'zlashtirish yo'li bilan paydo bo'lgan. Masalan, o'zlashma terminlar". O'zlashtirma so'z – ayni tilga boshqa tillardan kirib kelgan so'z".

Tilshunoslar barcha o'zlashgan so'zlarni to'rt guruhga bo'lishadi:

1. O'zlashgan tilidan o'sha ma'noni saqlab qolgan so'zlar.
2. Ma'no doirasi kengaygan so'zlar.
3. Yangi ma'no qirrasini ochilgan so'zlar.
4. Yangi tushuncha anglatgan o'zlashma so'zlar.¹

Ingliz tili nuqtayi nazaridan o'zlashmalar *borrowed words*, *loan words* yoki *borrowings* deb nomlanadi va ularga quyidagicha ta'rif keltirilgan, "O'zlashgan so'zlar (o'zlashmalar) boshqa tildan olingan hamda qabul qilingan til qonuniyatlariga bo'ysundirilgan til birliklaridir".²

So'z o'zlashtirish hindiy tili leksikasining boyitish usullaridan biridir. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish hodisasi xalqlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy aloqalar rivojining mahsuli hisoblanadi. Juda ko'p boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar shu darajada ildiz otganki, ular allaqachon boshqa til sifatida qabul qilinmay qo'ygan. So'z o'zlashtirish hodisasi morfemalar ko'rinishida ham bo'lishi mumkin: prefikslar – *a-*, *kontr-*, *super-*, *post-* hamda suffekslar – *-ism*, *-ist*, *-tion* kabi.

Hindiy tili ingliz tili bilan bir qatorda Hindiston Respublikasining rasmiy tili hisoblanadi. Hindiston Konstitutsiyasi ham 18 ta shtat tomonidan rasman tan olingan. Bundan ayon bo'ladiki, mamlakat hududida sinxron ravishda mahalliy tillar bilan bir qatorda urdu, hindiy va ingliz tili yuritilishi kabi til jarayonlari ham uchrab turadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Hindi Areal o'z ichiga shimoliy 6 ta shtatni qamrab oladi, unda asosan hindiy tilida va uning 17 ta hududiy dialekti, subdialekti va mahalliy lahjalarida gapirishadi. Bu hududlardagi barcha dialektlarda hanuzgacha folklor nasrchilik va nazmchilik rivojlanishi davom etmoqda. Shu tariqa bir hududda bir necha tildan foydalanish ularning o'zaro qo'shiluvi va o'zaro ta'siriga olib keladi. Bunday ko'ptillik esa, tildagi leksikaning o'zgarishini keltirib chiqaradi. A.A.Sigorskiy ta'kidlaganidek, "Hindiy tilidagi ko'ptillik turlicha kelib chiqqan: 1) kitobiy, adabiy til va og'zaki til mavjud bo'lgani kabi, qadimgi hindiy sanskriti va o'rta asrlar prakriti (qadimgi Hindistonda), o'rta asrlar hindiy tilining kechki davridagi adabiy tili apabxramsha va yangi hindiy so'zlashuv tili, zamonaviy adabiy hindiy tili va so'zlashuv dialektlarining bir paytda mavjudligi tufayli; 2) milliy til ta'sirida

¹ Лотте Д.С., Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов, М., 1982

² Lectures on English Lexicology. Kazan 2010, -B.10

bo'lgan boshqa tillardan so'z o'zlashtirilishi (hindi-fors va hindi-ingliz - Hinglish); 3) chet el o'zlashmalarining milliy til bilan aralashuvida Hinglish – nutqda hindi va ingliz tili aralashuvini – vujudga kelishi tufayli”³.

Definitsiya so'zi lotincha definision “mantiqiy aniqlash”, “tushunchaga mantiqiy ma'no yuklash” degan ma'nolarni anglatuvchi so'z hisoblanib, so'zlarning mantiqiy izohini beruvchi atamadir.⁴ Definitsiya tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lib, so'zlarning mazmunini anglatadi. Xususan, hindi tili o'qitish tizimida matnlar bilan ishlashda yangi so'zlarning definitsiyasini bilish ayniqsa, muhimdir. Bevozita hindi ingliz tili o'zlashmalarining tahlilidan oldin, “o'zlashma” so'zining definitsiyalariga to'xtalib o'tish joiz. Hindi tilida “o'zlashma” ma'nosida ishlatiluvchi bir qancha so'zlar mavjud.

Ushbu ilmiy maqolada hindi tilida “o'zlashma” atamasi ma'nosida olinuvchi 8 ta so'z va so'z birikmalari olinib, juftlik tarzida tahlil qilindi.⁵ Bu tahlil “o'zlashma” atamasi uchun qaysi bir atamaning mos kelishini, qaysi biri ilmiy atama sifatida munosib yoki neytral ekanligini aniqlashga yordam beradi. Juftliklarning birikishida ularning tub asosi bosh mezon qilib olindi va ularning definitsiyalari keltirildi. Quyida ularning tahlili keltirildi.

Har qanday tilning lug'at boyligida va uning so'z o'zlashtirish “qobiliyati”da o'zlashma so'zlarni o'rganish muhim sanaladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan shuni qayd etib o'tish zarurki, chet tili so'zlari biror tilning rivoji bilan birga o'zlashadi. Zamon talabi bilan hindi tiliga turkcha, arab-forsiy hamda portugal-fransuzcha, inglizcha so'zlarning ko'pchiligi o'zlashgan.

उद्धृत [uddhrit] va उद्धृत शब्द [uddhrit shabd] (‘o'zlashgan’ va ‘o'zlashgan so'z’); ग्रहण [grahan] va ग्रहीत [grahiit] (‘o'zlashish’ va ‘o'zlashma’)

Hindi tili leksikologiyasida “o'zlashma” so'zlar uchun उद्धृत va उद्धृत शब्द so'zlari ishlatiladi. उद्धृत शब्द so'zi boshqa tildan olingan so'zlardir. Ular “loan” va “borrowing” so'zlarining hindi tilidagi ekvivalenti hisoblanadi. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, उद्धृत so'zi ‘parcha qilib olingan’, ‘ildizi bilan qo'porib tashlangan’, ‘yuqoriga chiqarilgan’, ‘ozod qilingan’ hamda ‘to'langan’ degan ma'nolarni anglatadi. Etimologik nuqtai nazaridan sanskritdan kelib chiqqan so'z bo'lib, bu tatsama sanaladi. Shakl jihatidan fe'ning sifat-dosh

³ Сигорский А.А. Картина мира в многоязычном обществе (язык хинди) мозаика или сплав? Восточные языки и культуры. Материалы 1-ой международной научной конференции 22-23 ноября 2007 года. – М.

⁴ Ярцева В.Н. Языкознание. Большой энциклопедический словарь, М. 1998. –В67

⁵Begizova X.B. हिंदी में अंग्रेज़ी भाषा का तात्त्विक अध्ययन.-Т.,2012 (qo'lyozma)

shakli bo'lib hisoblanadi. उद्धृतni bir jarayon sifatida olsak, उद्धृत शब्द ushbu jarayonning natijasi hisoblanadi.

Yuqoridagi so'zlarning orfografik jihatidan yana bir ko'rinishi ग्रहण va ग्रहीत शब्द so'zlaridir.

Hindiy tili lug'at boyligidagi o'zlashma so'zlar uchun qo'llanuvchi yana bir so'z bu ग्रहण va ग्रहीत so'zlaridir. Bitta asosdan kelib chiqqan ushbu ikkita so'z ikki shaklda bo'lishiga qaramay bitta ma'noni anglatadi. ग्रहण so'zi 'olish', 'o'zlashtirish', 'qabul qilish', 'tan olish', 'rozi bo'lish', 'kuchsizlanish' kabi ma'nolarni anglatadi. ग्रहीत so'zi esa 'olingan', 'o'zlashtirilgan', 'qabul qilingan', 'o'zlashtirilgan so'z', 'tan olingan' kabi ma'nolarni anglatadi. Sanskritga oid bo'lgan ushbu so'zlar, ot va fe'ning sifatdash shaklida ekanligi bilan, yana tatsama ekanligi bilan ham farqlanadi.

आयात शब्द [aayaat shabd] va आगत शब्द [aagat shabd] ('yetib kelgan so'zlar' va 'qabul qilingan so'zlar')

आयात शब्द o'zlashma ma'nosida ishlatiluvchi so'z bo'lib, उद्धृत va उद्धृत शब्द so'zlari bilan sinonim hisoblanadi. Uning lug'aviy ma'nosi 'kelgan', 'yetib kelgan'; 'import', 'keltirilgan' degan ma'nolarni anglatadi. Etimologik jihatidan sanskritga oid so'z.

O'zlashgan so'zlarga nisbatan qo'llaniluvchi yana bir atama आगत शब्द hisoblanadi. U 'kelgan', 'yetib kelgan', 'qabul qilingan', 'yuz bergan' ma'nolari bilan bir qatorda 'mehmon', 'tashrif buyuruvchi' degan ma'nolarni ham anglatadi. O'zaro ma'no jihatidan आयात शब्द va आगत शब्द bir-biriga yaqin turadi. Zero, ikkalasining ham ma'no qirralari orasida o'xshashliklar kuzatiladi. Shuningdek, ular tuzilishi jihatidan ham fe'ning infinit shakli bo'lmish sifatdash shaklidagi so'zlardir.

लोनवर्ड [loan word] va बोरोइंग [borrowing] ('o'zlashma so'zlar' va 'o'zlashmalar')

आगत शब्द o'zlashgan so'z ma'nosini anglatuvchi ingliz tilidagi "loan words" so'zining ekvivalenti hisoblanadi. Hindiy tilida bu ma'no yana उद्धृत शब्द so'zi bilan ham ifodalanishini yuqorida qayd etib o'tdik. Ba'zi bir tilshunos olimlar "loan" so'zining o'rniga "borrowing" so'zini ham ishlatishadi. "Loan"

so'zining lug'aviy ma'nosi biror sabab bilan yoki sababsiz olingan va qaytarib berilishi kerak bo'lgan narsa, maxsus buyumdir. Shu tariqa ushbu so'zning asosida qaytib berish tushunchasi yotadi. Biroq tilshunoslik sohasida buning lug'aviy ma'nosi o'zgaradi. "Loan" so'zining ikkita ma'nosi mavjud: olish va qaytarib berish, ammo tilshunoslik nazariyasida uning birinchi ma'nosi saqlanib qolgan, "qaytarib berish" ma'nosiga bog'liq hech qanday hodisa uchramaydi. Ko'rinib turganidek, hindiydagi "उद्धृत" so'zi to'liq ravishda "loan" so'zi bilan ekvivalent bo'la olmasa-da, amalda to'g'ri va maqbul hisoblanadi. Chunki, "उद्धृत" so'zida faqat "olish" ma'nosi mujassam, olgan narsani qaytarib berish ma'nosi yuklanmagan. Yasparsanning fikricha, bu atama uchun "loan" so'zi ishlatishga qulay bo'lishiga qaramasdan, mos tushmaydi. Hindiy tilida "उद्धृत" so'zi faqat yasalgan so'zdir. Tilshunos olimlar bunday so'zlar uchun biror texnik termindan emas, hindiy tilida "विदेशी" so'zidan ham foydalanishadi. Doktor Bahri bunday so'zlarni "आयात शब्द" deb hisoblaydi.⁶

Tilshunoslik atamalari lug'atida "loan" so'zi bilan birgalikda o'zlashgan so'zlar uchun "borrowing" so'zi ham keltirilib o'tilgan. Bu boshqa tillardan olingan so'zlardir. Ularning ma'nolari o'zgarishi ham mumkin. Boshqa biror tildan olingan so'z "loan" so'zdir. Shu tariqa, uning izohida yana bir qirra ochildi. Umuman olganda, bu so'z boshqa chet tiliga oid bo'lishi zarur va u aynan o'sha holida o'zlashishi muhim emas, u o'zgarishi ham mumkin. Bu to'g'rida mashhur tilshunos Gleasonning fikrlariga e'tibor qilish zarur, u "borrowing"ni biror boshqa tilda so'zlashuvchilarning nutqidan olingan so'zlar deb hisoblaydi. Shu tarzda, Gleasonning fikriga asosan, yana bir yangi muommoli savol tug'iladi – bunday so'zlar biror chet tili adabiyotining biror ko'rininshi yoki lug'atidan emas, balki to'g'ridan-to'g'ri o'sha tilda muloqat qiluvchi kishilar nutqidan olinar ekan, ulardan, avvalo, ommaviy nutq misolida kundalik suhbatlarda foydalaniladi va ulardan qaysi biri ko'proq ishlatila boshlasa, adabiyotda ham qo'llanilib boshlaydi hamda bu so'zlar chet tili so'zlari nomi ostida o'zining tub ma'nosini saqlagan yoki o'zgartirgan holda lug'atlardan ham joy oladi. Bu so'zlar bir tildan boshqa bir tilga kirar ekan, bu so'zlar uchun आगत शब्द so'zi ham to'la mos keladi. Xullas, shu tarzda ko'rsatib o'tilgan tahlilga binoan, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

"Loan words" va "borrowing" so'zlarining hindiy tilida o'zlashma ma'nosida qo'llanishiga kelsak, ular quyidagicha farq qiladi:

- "loan" so'zi ma'no qirralari jihatidan "borrowing" so'ziga nisbatan ko'proq ma'noga ega;

⁶ Hardev Bahri. Hindi:udbhav, vikas aur rup. Ilahabad, 1965. –B.126

- “borrowing” soʻzlar ogʻzaki nutqdan oʻzlashgan boʻladi hamda koʻp isteʼmol qilinishi natijasida tilning lugʻat tarkibi va adabiyotiga kirib boradi;
- “loan” soʻzi ishlatilish doirasiga koʻra kengroq hisoblanadi;
- tashqi tuzilishi jihatidan “loan” soʻzi feʼl soʻz turkumiga oid soʻz boʻlib, ‘oʻzlashtirmoq’ degan maʼnoni anglatadi; “borrowing” soʻzi esa, feʼlning gerundiy (harakat nomi) shaklida boʻlib, ‘oʻzlashtirish’ degan maʼnoni bildirishi bilan farqlanadi.

Biz yuqorida koʻrib chiqqan soʻzlar oʻzlashma soʻzlar maʼnosini bildiruvchisi sinonimlardir. Maʼno jihatidan faqat ग्रहीत soʻzidagina ‘oʻzlashma soʻz’ maʼnosi uchradi. Shuning uchun bu soʻzni qoʻllash ‘oʻzlashma’ maʼnosida qoʻllanishiga hech qanday mubolagʻa boʻlishi mumkin emas. आयात शब्द va आगत शब्द soʻzlari esa, koʻproq ogʻzaki nutq uchun xoslangan. Ular ilmiy boʻyoqdorlikka ega boʻlmasdan, nutqda tushunarli va ishlatish uchun qulay hisoblanadi. उद्धृत va उद्धृत शब्द soʻzlari fan doirasida qoʻllanishi mumkin. Chunki “loan” va “borrowing” ingliz tili soʻzlari boʻlganligi sababli, hindiy tili grammatikasida ularning ekvivalentini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu soʻzlar esa, ularga ekvivalent sifatida qoʻllanishi qulay ekanligi haqida hindshunos tilshunos olimlar qayd etgan. Shuningdek, aynan ingliz tili oʻzlashmalari uchun अंग्रेज़ी शब्द atamasi ham qoʻllanadi. Lekin bu soʻz ‘oʻzlashma’ maʼnosini cheklab qoʻyadi. Chunki oʻzlashma deyilganda nafaqat soʻz, balki qoʻshimcha, soʻz birikmasi yoki frazeologik birliklar ham nazarda tutiladi. अंग्रेज़ी शब्द esa, faqat ‘ingliz tili soʻzlari’ maʼnosini beradi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzlashma soʻzlar shunday soʻzlarki, ular oʻsha tilda soʻzlashuvchilar nutqidan oʻzlashtirilgan boʻlib, oʻz maʼnosini saqlab qolgan boʻlishi yoki oʻzgartirgan boʻlishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, oʻzlashma soʻz boshqa tildan olingan va biz foydalanayotgan soʻzlardir. Hindiy tilida “oʻzlashma” soʻzi uchun bir necha xil soʻzlar ishlatiladi. Ular maʼno qirralari, ishlatilish doiralari bilan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ularni qaysi sohada va qanday hollarda ishlatilishi haqida maʼlumotlarga ega boʻlish nutqni bezashga hamda tilshunoslik jihatidan soʻzni toʻgʻri qoʻllay bilishga, uslubiy xatoga yoʻl qoʻymaslikka yordam beradi.